



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

Toshkent – 2026



KOMISSAROVNING EKVIVALENTLIK NAZARIYASIGA OID AYRIM QARASHLARI

SOME THEORETICAL VIEWS ON KOMISSAROV'S THEORY OF EQUIVALENCE

Mahmadiyor Asadov

PhD, dotsent (ToshDO'TAU)

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026/PUUM8384](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026/PUUM8384)

Annotatsiya. *Maqolada tarjima nazariyasining markaziy tushunchasi ekvivalentlik nazariyasining ilmiy talqini atroflicha tahlil qilinadi. Vilen Komissarov qarashlari asosida ekvivalentlikning lingvistik, semantik, uslubiy va pragmatik qatlamlari izohlanadi. Tadqiqotda tarjima jarayonida mutlaq moslikka erishishning imkoni yo'qligi, ammo mazmuniy yaqinlik, funksional moslik va estetik ta'sirni saqlash tarjimonning asosiy vazifasi ekani ilmiy asoslanadi. Matnda ekvivalentlikning so'z darajasidagi formal moslikdan kengroq – madaniy kontekst, kommunikativ vazifa va o'quvchiga ta'sirchanlik mezonlari bilan chambarchas bog'liq ko'p qirrali hodisa ekanligi yoritiladi. Shuningdek, adekvatlik jarayonga, ekvivalentlik esa natijaga yo'naltirilgan kategoriyalar sifatida izohlanib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda tarjima amaliyotidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *tarjima nazariyasi, ekvivalentlik, adekvatlik, lingvistik yaqinlik, semantik moslik, pragmatik ta'sir, funksional tenglik.*

Annotation. *In the article, the central concept of translation theory, the scientific interpretation of the theory of equivalence, is analyzed in depth. Based on the views of Vilen Komissarov, the linguistic, semantic, stylistic, and pragmatic layers of equivalence are elucidated. The study provides a scholarly justification for the idea that achieving absolute correspondence in the translation process is impossible; however, preserving semantic proximity, functional correspondence, and aesthetic impact constitutes the translator's primary task. The text demonstrates that equivalence is a multifaceted phenomenon that extends beyond formal word-level correspondence and is closely linked to cultural context, communicative purpose, and the effect on the reader. Furthermore, adequacy is explained as a process-oriented category, whereas equivalence is interpreted as a result-oriented one; their interrelationship and role in translation practice are also substantiated from an academic perspective.*

Keywords: *translation theory, equivalence, adequacy, linguistic proximity, semantic correspondence, pragmatic impact, functional equivalence*

Kirish. Tarjima nazariyasi insoniyat madaniyatida muhim o'rin tutuvchi murakkab hodisa bo'lib, u nafaqat ikki til o'rtasidagi lingvistik ko'prik, balki turli xalqlar dunyoqarashi va tafakkur tarzini bog'lovchi madaniy vosita sifatida qaraladi. Shu bois, tarjima masalasida eng ko'p muhokama qilingan nazariy muammolardan biri – adekvatlik va ekvivalentlik kategoriyalaridir. Bu tushunchalar bir tomondan, tarjima matnining asl nusxaga qanchalik yaqinligini belgilasa, ikkinchi tomondan, o'quvchi ongida manba matn bilan bir xil estetik va kommunikativ ta'sir uyg'otish darajasini ko'rsatadi. Tarjima amaliyotida so'zma-so'zlik bilan ijodiy qayta ishlash o'rtasidagi ziddiyat, milliy-madaniy o'ziga xosliklarning o'tkazilishi, badiiy-estetik qiymatning saqlanishi kabi masalalar aynan adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalari orqali hal etiladi. Shu jihatdan, bu nazariy kategoriyalar tarjimashunoslikning poydevori bo'lib, har qanday tarjima jarayonining ilmiy mezonlarini belgilab beradi.

Rus tarjimashunos olimi Vilen Komissarovning “ekvivalentlik – bu tarjima matnining asl matnga imkon qadar eng yuqori darajada lingvistik yaqinligidir” [Комиссаров, 1985: 152] degan ta'rif tarjimashunoslik nazariyasida muhim o'rin tutadi. Bu ta'rif qisqa va lo'nda bo'lib, tarjima jarayonida eng asosiy maqsadni – asl matn bilan tarjima matni o'rtasidagi ham mazmuniy, ham shakliy yaqinlikni maksimal darajada ta'minlash talabini ifodalaydi. Olimning bu yondashuvi shundan dalolat beradiki, tarjima jarayonida to'liq mutlaq tenglikka erishish mumkin emas, chunki har bir tilning o'ziga xos leksik-semantik tizimi, grammatik qurilishi, uslubiy vositalari va madaniy asoslari mavjud. Shunga qaramay, tarjimon imkon qadar asl matnga eng yaqin bo'lishi, ya'ni lingvistik va semantik jihatdan mos keladigan ekvivalentni tanlashga intilishi lozim.

V. Komissarovning bunday yondashuvidan quyidagilar ayonlashadi:

Birinchidan, Komissarovning ta'rifida “yuqori darajada” degan ibora juda muhim. Bu, aslida, tarjimada mutlaq bir xil bo'lish emas, balki imkon qadar, maksimal darajada yaqinlashish maqsadi qo'yilishini anglatadi. Til farqlari sababli mutlaq tenglik mumkin emasligi tan olinadi, lekin tarjima jarayonida shunga eng yaqin variant topish – tarjimonning vazifasi ekanligi belgilanadi.

Ikkinchidan, Komissarov tomonidan ilgari surilgan “lingvistik yaqinlik” atamasi oddiy so'zma-so'z moslikdan kengroq va murakkabroq hodisani ifodalaydi. Uning ta'kidlashicha, tarjimada ekvivalentlik nafaqat so'zlar darajasida, balki til tizimining turli qatlamlari – leksik, grammatik, semantik, uslubiy va kommunikativ omillar majmuida namoyon bo'lishi zarur. Buni yanada kengroq yoritadigan bo'lsak, avvalo, grammatik qurilishdagi yaqinlik tarjimonning sintaktik strukturalarni tanlashida ko'zga tashlanadi. Asl matnda mavjud bo'lgan grammatik shakl va



kategoriyalar tarjimada ham o'z kommunikativ vazifasini yo'qotmasligi kerak. Masalan, zamon, mayl yoki so'z tartibidagi o'zgarishlar semantik ma'noga ta'sir etishi mumkin, shuning uchun tarjimon grammatik moslikni ehtiyotkorlik bilan saqlashi zarur. Ikkinchi jihat, uslubiy uyg'unlik ham muhimdir. Har bir matn muayyan funksional uslubga mansub bo'lib, u o'quvchiga muayyan estetik yoki kommunikativ ta'sir ko'rsatadi. Tarjima jarayonida bu ohangni saqlab qolish – ekvivalentlikning eng muhim shartlaridan hisoblanadi. Masalan, badiiy matnlarda poetik ifoda vositalari, metaforalar yoki obrazlilikning tarjimada ham estetik samara berishi lozim. Uchinchi jihat, semantik ma'no qatlamida yaqinlikni ta'minlash tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir. Bu nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosini, balki uning konnotativ va assotsiativ jihatlarini ham qamrab oladi. Shu bois, bir so'zning yuzaki tarjimasi emas, balki kontekstdagi chuqur semantik vazifasini to'g'ri yetkazish muhim hisoblanadi. Yana bir muhim jihat, pragmatik ta'sir omili ham “lingvistik yaqinlik” tushunchasiga kiradi. Asl matn qanday kommunikativ vazifa bajarishi kerak bo'lsa, tarjima ham xuddi shu vazifani bajarishga qaratilishi lozim. Akademik Sh.Sirojiddinovning fikricha, “o'quvchiga pragmatik ta'sir o'tkazish masalasini tarjimon ham diqqatdan qochirmasligi lozim. Uning oldida ikki qiyin va mas'uliyatli vazifa qo'yilgan bo'ladi. Birinchisi, asar muallifining kommunikativ istagini to'g'ri tushunib, uning mahorati darajasidan kam bo'lmagan ravishda matn qayta tiklash bo'lsa, ikkinchisi, retsiptorning dunyoqarashi, mentaliteti va e'tiqodlarini hisobga olib, unga ta'sir o'tkazadigan mos usul va vositalarni izlab topish, muallif uslubi va kommunikativ istagi tamoyillarini buzmadan holda tarjima matnini yaratishdir. Tarjima jarayonida asl matnning pragmatik salohiyatini saqlab qolish va muallif kommunikativ istagini tarjimada to'liq aks ettirish tarjimaning pragmatikasi deyiladi.” [Сирожиддинов, 2011:29-30] V.Komissarov va Sh.Sirojiddinov fikrlar hamohang bo'lib, bu o'quvchining idrokidagi ta'sirchanlik darajasini, matndan oladigan estetik zavqini yoki axborot qabul qilish samaradorligini qamrab oladi. Shunday qilib, V.Komissarov nazarda tutgan “lingvistik yaqinlik” oddiy formal moslikdan iborat emas, balki matnning mazmuniy, uslubiy va kommunikativ xususiyatlarini kompleks tarzda qayta yaratish jarayoni sifatida qaralishi lozim. Tarjimon faqat so'zlar o'rtasidagi moslikni izlamaydi, balki asl matnning butun kommunikativ tizimini qayta ishlab, o'quvchi uchun shunga teng ta'sir ko'rsatadigan matn yaratishga intiladi.

Uchinchidan, Komissarovning ekvivalentlik haqidagi qarashlarida muhim jihatlardan biri shundaki, u tarjimonni so'zma-so'z tarjimaga bog'lab qo'ymaydi. Uning ta'kidlashicha, asl matnga imkon qadar lingvistik jihatdan yaqinlikni ta'minlash – bu so'zlarni mexanik tarzda ko'chirish emas, balki ularning semantik,



uslubiy va kommunikativ qiymatini yangi til tizimida qayta yaratishdir. Har bir tilning sintaktik qurilishi turlicha bo'lgani sababli, ko'pincha grammatik va sintaktik transformatsiyalar qilishga ehtiyoj tug'iladi. Masalan, ingliz tilidagi sodda gapning o'zbek tilida murakkab gap shaklida ifodalanishi yoki aksincha, o'zbek tilidagi ergash gapni fransuz tilida sodda jumлага aylantirish tarjimaning tabiiy oqimini ta'minlaydi. Bu o'zgarish shaklni o'zgartirsa-da, ma'no va ta'sirni asl holda saqlashga qaratilgan.

Tilning lug'aviy boyligi, ayniqsa sinonimlar qatlamining farqlanishi sababli, ba'zan asl matndagi so'zning to'g'ridan-to'g'ri ekvivalenti bo'lmasligi mumkin. Shunday hollarda tarjimon semantik jihatdan eng yaqin, kontekstdagi vazifasiga mos sinonimni tanlashi zarur. Masalan, rus tilidagi “печальный” so'zi ba'zan “g'amgin”, ba'zan “*afsusli*”, ba'zan esa “*achinarli*” tarzida tarjima qilinadi. Tarjimon tanlovida kontekst hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, asl matnning uslubiy xususiyatlarini saqlash tarjimaning eng mas'uliyatli jihatlaridan biridir. Ba'zan uslubiy vositalarni bir til tizimidan ikkinchisiga bevosita o'tkazish mumkin emas. Shuning uchun tarjimon stilistik transformatsiyalar orqali muallif uslubini yangi til imkoniyatlarida qayta yaratadi. Masalan, she'riy matndagi qofiya, metafora yoki ohangni so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, balki boshqa uslubiy vositalar orqali o'quvchiga xuddi shunday estetik ta'sir ko'rsatish lozim. Komissarov yondashuvida eng asosiy tamoyil shuki, matnning shakli emas, balki mazmuni va kommunikativ ta'siri ustuvor hisoblanadi. Tarjimon zarur bo'lsa, matnni qayta quradi, lekin muallifning aytmog'chi bo'lgan fikri va o'quvchiga yetkazmog'chi bo'lgan hissiy ta'sirini yo'qotmasligi shart. Shu sababli, tarjimada ayrim joylarda ijodiy erkinlik, kontekstga moslashuv va milliy-madaniy farqlarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Komissarovning ta'kidlashicha, tarjima – bu faqat til vositalarini almashtirish emas, balki ijodiy faoliyatdir. Tarjimon muallif bilan hamkorlikda, lekin o'z tilida yangi matn yaratuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, tarjimon so'zma-so'zlikka qamalib qolmasdan, asl matnning ruhini, ohangini va g'oyasini yangi til sharoitida qayta tiklashga intiladi.

Demak, Komissarovning yondashuvi tarjimashunoslikdagi adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalarining muvozanatli yechimini beradi: shaklni emas, mazmun va ta'sirni ustuvor qo'ygan holda, zarur hollarda til vositalarini o'zgartirish, yangilash va moslashtirish tarjimonning asosiy vazifasidir. Bu tarjima jarayonidagi eng muhim mezon ekanligini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham tarjima nazariyasida “ekvivalentlik” kategoriyasi eng ko'p muhokama qilingan va ilmiy asoslangan tushunchalardan biridir. Avvalo, u semantik umumiylik tamoyiliga tayanadi. Bunda tarjima jarayonida bir-biriga



tenglashtirilayotgan birliklar (so'z, birikma, gap yoki butun matn) ma'nodagi umumiylik orqali ekvivalentlik darajasiga erishadi. Demak, ekvivalentlikning dastlabki ko'rinishi – bu mazmuniy yaqinlikning mavjudligidir.

Shu bilan birga, ekvivalentlik faqat belgilar o'rtasidagi munosabat bilan chegaralanib qolmaydi. U matnlararo aloqalarni ham qamrab oladi. Ammo bu yerda muhim jihat shuki, belgilarning ekvivalentligi har doim ham matnlarning ekvivalentligini anglatmaydi, xuddi shuningdek, matnlarning ekvivalentligi ham ularning barcha segmentlari mutlaq darajada ekvivalent ekanligini bildirmaydi. Demak, ekvivalentlik ko'p qatlamli hodisa bo'lib, unda qisman moslik, funksional yaqinlik va umumiy kommunikativ samara kabi omillar hisobga olinadi.

Ekvivalentlik masalasi faqat lingvistik sath bilan cheklanmay, madaniy o'lchovni ham o'z ichiga oladi. Chunki tarjima jarayonida manba va maqsad tiliga oid birliklar ko'pincha turli madaniy muhitda mavjud bo'ladi. Shu bois, matnlarning ekvivalentligi ularning lingvistik shakllari bilan birga, madaniy ekvivalentlik darajasida ham baholanadi. Masalan, milliy urf-odatlar, tarixiy realliklar yoki diniy tushunchalar tarjimada bevosita lingvistik moslik orqali emas, balki madaniy kontekstni hisobga olgan holda qayta yaratilishi kerak bo'ladi.

Bu jihatdan “ekvivalentlik” va “ekvivalent” atamaları turli madaniyatlarda bir xil kommunikativ vazifani bajaruvchi manba va maqsadli matnlar o'rtasidagi munosabatni bildiradi. Boshqacha aytganda, ekvivalentlik natijada erishilgan funksional tenglikni ifodalaydi. Bu yerda muhim farq shundaki, adekvatlik jarayonga yo'naltirilgan bo'lsa, ekvivalentlik natijaga yo'naltirilgan hodisadir.

L.Nelyubin bu borada ekvivalentlikni adekvatlikning alohida ko'rinishi sifatida talqin qiladi va uni manba hamda yakuniy matnlar o'rtasidagi funksional konstantaning mavjudligi bilan izohlaydi. [Нелюбин 2003:253-254] Olimning bu fikri, aslida, ekvivalentlikni adekvatlikdan mutlaq ajratib qo'ymaslik, balki uni adekvatlikning maxsus shakli sifatida tushunish zarurligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib aytish mumkinki, ekvivalentlik tushunchasining asosiy semasi – bu tenglik va moslikdir. Biroq bu tenglik matematik darajadagi mutlaq moslik emas, balki til va madaniyat o'rtasidagi tafovutlarni inobatga olgan holda shakllanadigan mazmuniy va kommunikativ tenglikdir.

Xulosa. Yuqoridagi nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarjima jarayoni til va madaniyatlararo vositachilikning murakkab shakli bo'lib, unda matnning faqat lingvistik qurilishini emas, balki semantik mazmunini, uslubiy ohangini va pragmatik ta'sirini ham qayta yaratish talab etiladi. V.Komissarov tomonidan ilgari surilgan “lingvistik yaqinlik” nazariyasi tarjimonning vazifasini so'zlarni almashtirish bilan

cheklab qo'ymaydi, balki matnning kommunikativ vazifasini yangi til sharoitida to'liq tiklashni taqozo etadi. Shuningdek, Sh.Sirojiddinovning pragmatik ekvivalentlik haqidagi qarashlari tarjimada muallif istagini, o'quvchi mentalitetini va matnning ta'sirchanlik kuchini uyg'un saqlash zarurligini ta'kidlaydi. L.Nelyubin esa ekvivalentlikni adekvatlikning maxsus ko'rinishi sifatida izohlab, uning funksional mohiyatiga e'tibor qaratadi.

Umuman olganda, ekvivalentlik faqat formal moslik emas, balki mazmuniy, uslubiy, kommunikativ va madaniy qatlamlarini qamrab oluvchi ko'p qirrali hodisa ekani ayonlashdi. Adekvatlik jarayonga, ekvivalentlik esa tarjima natijasiga yo'naltirilgan kategoriya ekanligi oydinlashdi. Bularning barchasi tarjima amaliyotida eng asosiy mezon – asl matnning mazmuni, ruhiy-estetik ohangi va kommunikativ samarasini yo'qotmagan holda yangi tilga ko'chirish ekanligini ko'rsatadi. Shu bois, adekvatlik va ekvivalentlik nazariyalari tarjimashunoslikning poydevoriy tushunchalari sifatida o'z ilmiy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Adabiyotlar:

1. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. – М.: Международные отношения, 1980.
2. Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадиий таржима асослари. Тошкент: Мумтоз сўз. – 2011. – Т. 166.
3. Нелюбин, Л. Л. Толковый переводоведческий словарь [Текст] / Л. Л. Нелюбин. – М.: Флинта: Наука, 2003.
4. Asadov M. A Brief Review Of Vilen Komissarov's Theory Of Equivalence //International Journal Of Literature And Languages. – 2025. – Т. 5. – №. 12. – С. 86-89.
5. Marton W. Equivalence and congruence in transformational contrastive studies //Theoretical issues in Contrastive linguistics. – John Benjamins Publishing Company, 2011. – С. 19-28.
6. Asadov, M. T. Fransuz-o'zbek tarjimachiligi istiqbollari// *O'zbekiston: til va madaniyat*. 1.3 (2021): 125-134.
7. Asadov M. The concept of individualism and absurdity in Camus' the stranger //American Journal of Philological Sciences. – 2025. – Т. 5. – №. 03. – С. 119-123.
8. Jo'raqulov U. O'zbek tarjimachiligi istiqbollari //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 1.
9. Asadov M. Tarjima–qiyosiy adabiyotshunoslikning tadqiqot obyekti //Conferences. – 2025. – Т. 1. – №. 1.



10. Asadov M. et al. Badiiy portret va uning tarjimada aks etishi //Tadqiqotlar. – 2026. – T. 77. – №. 3. – С. 111-115.
11. Bekmurodova Z. Tarjimaда коммуникатив функцияли тасвир воситаларини танлаш. Қарши 2019. – В. 119-120.
12. Bekmuradova Z. O‘zbek va fransuz maqollaridagi xiazmlarning stilistik, semantik va lingvokulturologik tahlili //Conferences. – 2025. – T. 1. – №. 1.
13. Krzeszowski T. P. The problem of equivalence revisited //IRAL: International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 1981. – T. 19. – №. 2. – С. 113.
14. Panou D. Equivalence in translation theories: A critical evaluation //Theory and Practice in Language Studies. – 2013. – T. 3. – №. 1. – С. 1-6.
15. Gavharoy Ruzimovna Komilova. (2022). METHODS OF ANALYSIS OF VALUES REFLECTED IN PROVERBS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(12), 34-43. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-12-05>
1. Hakimova M. Leveling lexical abstraction in Uzbek Language. *Anglisticum Journal*. May, 2019. -P. 36-42.
2. MAHMADIYOR, A. (2020). THE PROBLEM OF AN ABSURD HERO IN THE PROSE OF ALBERT CAMUS AND KHURSHID DUSTMUHAMMAD. *INTERNATIONAL JOURNAL*, 2(3), 117-126.
3. Muhammadiyeva D. (). “BOBURNOMA” NING TURKCHA TARJIMASI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR. Vol. 1 No. 1 (2025): FILOLOGIK KOMPARATIVISTIKA VA TARJIMASHUNOSLIK MASALALARI.
4. Rashidova, N. B. (2021). Active, common words-arabisms of the sphere of education in the uzbek language. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 574-579.
5. Shamsiyeva M. БИЛИНГВИЗМНИНГ БОЛА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖИГА ТАЪСИРИ. VIII. ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI ARAŞTIRMALARI SEMPOZYUMU (2 – 5 Haziran 2021, Niğde)
6. UI Abdikarimovna [«KO‘NGIL» LEKSEMASI VA UNING «TAFAKKUR» SEMEMASIDAN SHAKLLANGAN FRAZEMALAR TAHLILI \(«Xamsa» asari misolida\)](#). *Philological research: language, literature, education*, 2025
7. Turdiyevna, K. Z., & Ruzimovna, K. G. (2021). The role of zoonyms in the expression of axiological content. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 1430-1434.
8. H M [«Kutadgu bilig» eserindeki bazı türkçe sözler ve onların özbekçedeki biçimleri üzerine](#) *Global-turk*, 12-17.